

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 24 669 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik	2026-yil 1- aprel holatiga, birlik
Xorazm viloyati	21 464	24 669
Urganch sh.	4 200	4 784
Xiva sh.	1 571	1 803
Bog'ot	1 455	1 617
Gurlan	1 336	1 471
Qo'shko'pir	1 600	1 864
Urganch	2 440	2 800
Hazorasp	1 358	1 591
Tuproqqal'a	588	675
Xonqa	1 737	2 020
Xiva	1 427	1 547
Shovot	1 354	1 533
Yangiariq	1 478	1 850
Yangibozor	920	1 114

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Iqtisodiy faoliyat turlari

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-martida 2 031 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 589 ta, savdo sohasida 534 ta, sanoatda 303 ta hamda boshqa xizmatlarda 227 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Xorazm viloyati	1 723	2 031
Urganch sh.	266	281
Xiva sh.	100	130
Bog'ot	172	190
Gurlan	144	174
Qo'shko'pir	158	173
Urganch	139	184
Hazorasp	104	153
Tuproqqal'a	47	46
Xonqa	100	123
Xiva	103	117
Shovot	129	189
Yangiariq	161	172
Yangibozor	100	99

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 66,8 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,4 % ga pasaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 042,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 24,8 % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Shovot tumani (72,7 %), Gurlan tumani (57,3 %), Bog'ot tumani (49,4 %), Xiva sh. (46,1 %) va Urganch tumani (34,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 661,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiariq (98,2 %), Qo'shko'pir (98,0 %) va Shovot (96,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 469,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 65,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 145,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Xiva sh. (98,6 %), Qo'shko'pir (96,1 %), Shovot (91,9 %) va Tuproqqal'a (90,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 4 770,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 93,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xiva sh. (98,3 %), Hazorasp (98,3 %), Xiva (98,3 %) va Gurlan (98,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 4 493,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 96,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 140,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Gurlan (99,6%), Qo'shko'pir (99,6 %), Yangiariq (99,6 %) va Xonqa (99,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 7 381,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 71,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 115,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangibozor (83,9 %), Xiva sh. (83,5 %), Gurlan (81,3 %), Qo'shko'pir (79,5 %) va Yangiariq (77,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 68,4 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 68,5 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Hazorasp tumanida – 100,0 %, Yangibozor tumanida – 100,0 %, Yangiariq tumanida – 99,3 %, Qo'shko'pir tumanida – 98,4 %, Bog'ot tumanida – 97,7 % va Xiva sh. – 89,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 78,6 mln AQSH dollarini yoki jami importning 76,9 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – 100,0 %, Yangibozor tumanida – 100,0 %, Urganch tumanida – 99,0 %, Yangiariq tumanida – 97,2 %, Xiva tumanida – 86,5 %, Xonqa tumanida – 84,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,7 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 81,9 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,6 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,0 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar- martida 28,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- martida 17,8 % ga yetgan yoki 2022- yilning yanvar-martiiga nisbatan 10,3 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar- martida 68,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- martida 80,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022- yilning yanvar- martida 3,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar- martiga kelib bu ko'rsatkich 2,1 % ga yetgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar- martida 37,5 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- martida 50,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar- martida 59,9 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- martida 46,7 % tashkil etgan. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar- martida 2,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar- martiga kelib 2,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 19,8 % ni, qurilishda – 19,6 % ni va savdoda – 17,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – 84,3 % ni, savdoda – 81,5 % ni va qurilishda – 78,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,1 % ni, xizmatlar sohasida – 2,3 % ni va qurilishda – 2,2 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.



Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuv statistikasi bo'limi

Ijrochi:

T. Xodjaniyazov
(62) 227-77-88 (90-30)

Manzil:

220100, Urganch sh., Al-
Xorazmiy ko'chasi, 93-uy
